Transportation Research Board tomonidan ishlab chiqilgan "Transit Capacity and Quality of Service Manual" qo'llanmasida jamoat transporti tizimlarining o'tkazuvchanlik qobiliyati va xizmat ko'rsatish sifatini baholash metodologiyasi bayon etilgan [3]. Mazkur manbada transport xizmatlari sifatini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlar sifatida harakat muntazamligi, yo'lovchilarning kutish vaqti hamda transport vositalarining bandlik darajasi alohida ajratib ko'rsatilgan. Ushbu qo'llanma transport tizimini rejalashtirish va baholashda muhim ilmiy-amaliy manba hisoblanadi.



TCRP Report 215 “Minutes Matter: A Bus Transit Service Reliability Guidebook” tadqiqotida transport xizmatlari ishonchligi va yo'lovchilarning kutish vaqti o'rtasidagi bog'liqlik chuqur tahlil qilingan [4]. Tadqiqot natijalari avtobus transporti xizmatlari ishonchligini oshirish orqali transport xizmatlari sifatini sezilarli darajada yaxshilash mumkinligini ko'rsatgan.

Gibson, Bunker va Ferreira tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda jamoat transporti harakati ishonchligini baholashning analitik modellari ishlab chiqilgan [5]. Mualliflar harakat muntazamligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida transport oqimining zichligi, bekatlardagi xizmat ko'rsatish davomiyligi, transport vositalarining harakat dinamikasi hamda haydovchilarning boshqaruv xususiyatlarini ko'rsatib o'tganlar.

Turnquist tomonidan olib borilgan tadqiqotda transport xizmatlari ishonchligi va yo'lovchilar soni o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlangan [6]. Muallif transport xizmatlari muntazamligi transportdan foydalanish darajasini belgilovchi muhim omil ekanligini ilmiy asoslab bergan. Ushbu natijalar transport xizmatlarini rejalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Daganzo tomonidan ishlab chiqilgan headway-based boshqaruv modeli avtobuslarning bir-biriga yaqinlashib qolish holatlarini oldini olishga qaratilgan samarali boshqaruv yondashuvi hisoblanadi [7]. Ushbu model transport vositalari harakati muntazamligini ta'minlash imkonini beruvchi innovatsion yondashuv sifatida e'tirof etilgan va amaliyotda keng qo'llanilmoqda.

Shuningdek, transport tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlarda transport vositalarini bekatlarda boshqarish strategiyalari ham muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslangan [8]. Mazkur yondashuv transport vositalari harakatini muvofiqlashtirish orqali qatnovlar muntazamligini oshirish imkonini beradi.

Ilmiy adabiyotlarda jamoat transporti harakat muntazamligiga ta'sir etuvchi omillar ichki va tashqi omillarga ajratilib o'rganiladi [9, 10]. Ichki omillarga transport vositalarining texnik holati, haydovchilar malakasi va boshqaruv tizimi kirsas, tashqi omillarga yo'l infratuzilmasi, transport oqimi zichligi, svetofor boshqaruvi va ob-havo sharoiti kiradi.

Kittelson va hammualliflar tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy ishlarda transport tizimlarining xizmat ko'rsatish sifatini baholash metodologiyasi yanada rivojlantirilgan [11]. Ushbu yondashuv transport xizmatlari samaradorligini oshirish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Furth va Muller transport xizmatlari ishonchligi va yo'lovchilar kutish vaqti o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib, xizmat sifati yo'lovchilar transportdan foydalanish qaroriga sezilarli ta'sir ko'rsatishini aniqlaganlar [12]. Strathman va Hopper esa transport vositalarining jadvalga rioya etish darajasini empirik asosda tahlil qilganlar [13].

Abkowitz va Engelstein transport vositalari harakat vaqtiga ta'sir etuvchi omillarni matematik modellashtirish usullarini ishlab chiqqanlar [14]. Levinson esa transport xizmatlari ishonchligini transport tizimi samaradorligining asosiy mezonlaridan biri sifatida asoslab bergan [15].

Umuman olganda, yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqotlar jamoat transporti harakat muntazamligini ta'minlash transport tizimi samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar transport xizmatlari sifatini oshirish va harakat muntazamligini samarali boshqarish bo'yicha muhim ilmiy asos yaratgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot jamoat yo'lovchi transporti harakati muntazamligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tizimli o'rganish va baholashga qaratilgan bo'lib, tadqiqot jarayonida zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlar hamda nazariy va empirik tadqiqot usullaridan kompleks foydalanildi. Metodologiya nazariy tahlil va amaliy kuzatuv natijalarini o'zaro uyg'unlashtirish asosida shakllantirildi, bu esa jamoat transporti tizimining ko'p omilli va murakkab xususiyatlarini chuqur tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini tizimli tahlil usuli tashkil etdi. Mazkur yondashuv asosida jamoat transporti tizimi o'zaro bog'liq elementlardan iborat yagona funksional tizim sifatida ko'rib chiqildi. Xususan, transport vositalari, haydovchilar, yo'lovchilar, yo'l infratuzilmasi va dispetcherlik boshqaruvi o'rtasidagi o'zaro aloqalar o'rganilib, ularning harakat muntazamligiga ta'sir etish mexanizmlari aniqlandi. Tizimli yondashuv harakat muntazamligiga ta'sir etuvchi omillarni kompleks baholash va ularning ustuvorlik darajasini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotning nazariy qismida jamoat transporti tizimlari faoliyati samaradorligi va harakat muntazamligiga oid xalqaro va mahalliy ilmiy manbalar, monografiyalar, ilmiy maqolalar, statistik ma'lumotlar hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Adabiyotlarni o'rganish jarayonida qiyosiy tahlil, ilmiy umumlashtirish va tizimlashtirish usullaridan foydalanildi. Ushbu usullar yordamida transport tizimi harakat muntazamligini ta'minlash bo'yicha mavjud ilmiy yondashuvlar va amaliy tajribalar umumlashtirildi.

Tadqiqotning empirik qismi kuzatuv va anketa so'rovi usullariga asoslandi. Kuzatuv usuli yordamida Farg'ona viloyati, xususan Qo'qon shahridagi jamoat transporti yo'nalishlarida avtobuslarning harakat

jadvaliga rioya etish darajasi, bekatlarda to'xtash davomiyligi, transport vositalarining yuklanish darajasi va qatnov intervali kabi ko'rsatkichlar o'lchandi va qayd etildi. Kuzatuvlar ish kunlarining turli vaqt oraliqlarida, jumladan ertalabki tig'iz davr (07:30–09:00), kunduzgi davr (12:00–14:00) va kechki tig'iz davr (17:00–19:00) davomida amalga oshirildi. Har bir kuzatuv jarayonida kamida 10 ta avtobus harakati monitoring qilinib, ularning bekatlarga yetib kelish vaqti, to'xtash davomiyligi va yo'lovchi almashinuvi ko'rsatkichlari qayd etildi.

So'rov usuli doirasida jamoat transporti haydovchilari va yo'lovchilari o'rtasida anketa so'rovlari tashkil etildi. Haydovchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovda 50 nafar respondent ishtirok etdi va ulardan transport vositalarining texnik holati, harakat jadvaliga rioya etish sharoitlari va transport oqimlari ta'siri haqida ma'lumotlar olindi. Yo'lovchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovda esa 200 nafar respondent qatnashib, ularning transport xizmatlari sifati, kutish vaqti va harakat muntazamligi haqidagi fikrlari o'rganildi.

Tadqiqot obyekti sifatida Farg'ona viloyati shaharlaridagi jamoat transporti tizimi, xususan Qo'qon shahridagi avtobus yo'nalishlari tanlandi. Tadqiqot predmeti esa jamoat transporti harakati muntazamligiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar hamda ularning o'zaro bog'liqligi hisoblanadi. Tadqiqot doirasida shaharning turli hududlarini qamrab oluvchi va yo'lovchi oqimi intensivligi bilan farqlanuvchi 5 ta asosiy avtobus yo'nalishi (№1, №5, №7, №12 va №15) o'rganildi.

Tadqiqot natijalarini qayta ishlashda statistik tahlil usullaridan, jumladan korrelyatsion tahlil usulidan foydalanildi. Ushbu usul yordamida harakat muntazamligiga ta'sir etuvchi omillar va natijaviy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik darajasi aniqlandi. Mazkur metodologik yondashuv jamoat transporti tizimining harakat muntazamligini baholash va uni oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jamoat transporti harakati muntazamligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tizimli tahlil qilish natijasida ularni ichki va tashqi omillar guruhlariga ajratish hamda har bir guruhning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkoniyati yaratildi. Tadqiqot davomida to'plangan empirik ma'lumotlar va ularning statistik tahlili ushbu omillarning harakat muntazamligiga ta'sir darajasi va mexanizmlarini aniqlashga imkon berdi.

Ichki omillar guruhiga kiruvchi transport vositalarining texnik holati tadqiqot natijalariga ko'ra, harakat muntazamligiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri sifatida namoyon bo'ldi. Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, o'n yildan ortiq vaqt davomida foydalanilgan transport vositalari yangi avtobuslarga nisbatan o'rtacha 2–3 barobar ko'proq texnik nosozliklar bilan bog'liq to'xtashlarga duch kelmoqda. Ayniqsa, dvigatel, tormoz tizimi va eshik mexanizmlaridagi nosozliklar eng ko'p uchraydigan holatlar sifatida qayd etildi. Qo'qon shahridagi kuzatuvlarda ishtirok etgan avtobuslarning taxminan 35 foizi o'n yildan ortiq foydalanilgan bo'lib, ularning harakat jadvalidan o'rtacha kechikish vaqti 15–20 daqiqani tashkil etdi. Yangi avtobuslarda esa ushbu ko'rsatkich 5–7 daqiqadan oshmadi.

Transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish tizimining holati ham muhim omil sifatida baholandi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, texnik xizmat ko'rsatish bazasini yanada rivojlantirish, ehtiyot qismlar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish va malakali texnik mutaxassislar salohiyatini oshirish transport vositalarining ishchi holatini barqaror ta'minlash imkonini beradi. Natijada transport vositalarining qatnovdan vaqtincha chiqib qolish holatlari kamayib, harakat muntazamligini yaxshilash imkoniyati ortadi.

Haydovchilarning malakasi va intizomi masalasi ichki omillar guruhining muhim tarkibiy qismi sifatida o'rganildi. So'rov natijalariga ko'ra, haydovchilarning kasbiy tajribasi va malakasi harakat xavfsizligi hamda jadvalga rioya qilish darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tajribali haydovchilar transport oqimining murakkab sharoitlarida ham jadvalga yaqin harakatlanish imkoniyatiga ega bo'lsa, tajribasi kam haydovchilar ayrim holatlarda qo'shimcha qiyinchiliklarga duch kelishi kuzatildi. Shu bilan birga, haydovchilarning mehnat sharoitlarini yanada yaxshilash, ish rejimini optimallashtirish va rag'batlantirish tizimini rivojlantirish harakat muntazamligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Kuzatuvlar davomida ayrim yo'nalishlarda jadvaldan og'ish holatlari ham qayd etildi. Xususan, dispetcherlik nazorati yetarli darajada tashkil etilmagan yo'nalishlarda ayrim haydovchilar yo'lovchilar oqimini to'liq shakllantirish maqsadida bekatlarda belgilangan vaqtdan ko'proq turish holatlari kuzatildi. Bu esa keyingi bekatlarda avtobuslarning jadvaldan kechikishiga sabab bo'ldi. Shuningdek, haydovchilarning dam olish va ovqatlanish tanaffuslarining notekis taqsimlanishi ham harakat muntazamligiga ta'sir etuvchi omillar sifatida baholandi.

Boshlang'ich va oxirgi bekatlarda avtobuslarning turish vaqti masalasi alohida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, boshlang'ich bekatlarda avtobuslarning turish vaqti o'rtacha 8–12 daqiqani tashkil etdi. Ushbu vaqt haydovchilarning xizmat faoliyati bilan bog'liq zarur tashkiliy jarayonlarni amalga oshirish uchun sarflanadi. Ushbu vaqtning o'zgarishi butun yo'nalish bo'ylab harakat jadvaliga ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Ayniqsa, oxirgi bekatlarda turish vaqtining notekisligi teskari yo'nalishdagi harakat muntazamligiga ta'sir ko'rsatishi kuzatildi.



Tashqi omillar guruhiga kiruvchi yo'l infratuzilmasi sharoitlari ham muhim omil sifatida baholandi. Qo'qon shahridagi kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, asfalt qoplamasi yaxshi holatda bo'lgan yo'llarda avtobuslarning harakat tezligi barqaror bo'lib, jadvalga rioya etilish darajasi yuqori bo'ldi. Yo'l qoplamasi eskirgan hududlarda esa transport vositalarining harakat tezligi pasayib, o'rtacha 5–7 daqiqalik kechikishlar kuzatildi.

Jamoat transporti uchun maxsus ajratilgan yo'laklarning mavjudligi masalasi ham muhim omil sifatida baholandi. Tadqiqot hududida bunday yo'laklarning yetarli darajada rivojlanmaganligi umumiy transport oqimi tarkibida harakatlanayotgan avtobuslar harakatiga qo'shimcha yuklama keltirib chiqarishi kuzatildi. Ayniqsa, shahar markazidagi tor ko'chalarda bu holat yaqqol namoyon bo'ldi.

Transport oqimining zichligi va tirbandlik darajasi tashqi omillar ichida eng muhimlaridan biri sifatida aniqlandi. Kuzatuvlar natijasiga ko'ra, Qo'qon shahrida ertalabki 07:30–09:00 va kechki 17:00–19:00 oralig'ida transport oqimining zichligi 2–2,5 barobar oshishi qayd etildi. Ushbu davrlarda avtobuslarning jadvaldan o'rtacha 15–20 daqiqagacha og'ishi kuzatildi. Boshqa vaqtlarda esa ushbu ko'rsatkich 5–7 daqiqani tashkil etdi.

Transport oqimining notekis taqsimlanishi natijasida avtobuslarning bir-biriga yaqinlashib qolish holatlari ham kuzatildi. Bu esa yo'lovchilar oqimining notekis taqsimlanishiga ta'sir ko'rsatdi.

Ob-havo sharoitining ta'siri ham o'rganildi. Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, noqulay ob-havo sharoitida avtobuslarning harakat tezligi o'rtacha 20–30 foizga pasayadi.

Korrelatsion tahlil natijalariga ko'ra, eng yuqori korrelyatsiya transport oqimining zichligi ($r = 0,78$) va haydovchilar malakasi ($r = 0,72$) omillari bilan bog'liq ekanligi aniqlandi. Shuningdek, transport vositalarining texnik holati ($r = 0,68$), yo'l infratuzilmasi sifati ($r = 0,65$) va ob-havo sharoiti ($r = 0,52$) ham muhim omillar sifatida qayd etildi (1-jadval).

1-jadval. Ichki va tashqi omillarning harakat muntazamligiga ta'sir darajasi¹

Omillar guruhi	Omil nomi	Korrelyatsiya koeffitsiyenti (r)	O'rtacha kechikish vaqti (daqiq)	Ta'sir darajasi
Ichki omillar	Transport vositalarining texnik holati	0,68	15-20 (eskirgan) / 5-7 (yangi)	Yuqori
	Haydovchilar malakasi	0,72	10-15 (tajribasiz) / 3-5 (tajribali)	Yuqori
	Boshlang'ich bekatlarda turib qolish vaqti	0,54	8-12	O'rtacha
	Haydovchilar intizomi	0,48	5-10	O'rtacha
Tashqi omillar	Transport oqimining zichligi (tirbandlik)	0,78	15-20 (pik soat) / 5-7 (oddiy vaqt)	Juda yuqori
	Yo'l infratuzilmasi sifati	0,65	5-7	Yuqori
	Sветофор boshqaruvi tizimi	0,44	3-5	O'rtacha
	Ob-havo sharoiti	0,52	20-30% tezlik pasayishi	O'rtacha

Regression tahlil natijalari omillarning harakat muntazamligiga ta'sirining umumiy modelini ishlab chiqish imkonini berdi. Modelga ko'ra, harakat muntazamligi o'zgaruvchanligining taxminan 74 foizi tadqiqotda o'rganilgan omillar bilan izohlanadi. Qolgan 26 foizi esa tadqiqot doirasida hisobga olinmagan boshqa omillar ta'siriga to'g'ri keladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, jamoat transporti harakati muntazamligini ta'minlash murakkab va ko'p omilli jarayon bo'lib, uning samaradorligi ichki va tashqi omillarning o'zaro uyg'unligiga bevosita bog'liqdir. Olib borilgan kuzatuv va so'rov natijalarining tahlili shuni ko'rsatdiki, harakat muntazamligining pasayishi nafaqat yo'lovchilarning transport xizmatlaridan qoniqish darajasiga, balki transport korxonalarining iqtisodiy samaradorligiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Ichki omillar guruhiga kiruvchi transport vositalarining texnik holati tadqiqot natijalariga ko'ra, harakat muntazamligiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri sifatida namoyon bo'ldi. Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, o'n yildan ortiq vaqt davomida foydalanilgan transport vositalari yangi avtobuslarga nisbatan o'rtacha 2–3 barobar ko'proq texnik nosozliklar bilan bog'liq to'xtashlarga duch kelmoqda. Ayniqsa, dvigatel, tormoz tizimi va eshik mexanizmlaridagi nosozliklar eng ko'p uchraydigan muammolar qatoriga kiradi.

Qo'qon shahridagi kuzatuvlarda ishtirok etgan avtobuslarning taxminan 35 foizi o'n yildan ortiq muddat foydalanilgan bo'lib, ularning harakat jadvalidan o'rtacha kechikish vaqti 15–20 daqiqani tashkil etgan. Yangi avtobuslarda esa ushbu ko'rsatkich 5–7 daqiqadan oshmagan.

¹ Muallif ishlanmasi

Transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish tizimining holati ham muhim omil sifatida baholandi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, texnik xizmat ko'rsatish bazasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, ehtiyot qismlar bilan ta'minlashdagi uzilishlar hamda malakali ta'mirlash xodimlarining yetishmasligi transport vositalarining ishchi holatda saqlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada avtobuslarning reysdan chiqib qolish holatlari ko'payib, bu esa harakat muntazamligining pasayishiga olib kelmoqda.

Boshlang'ich va oxirgi bekatlarda avtobuslarning turib qolish vaqti ham alohida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, boshlang'ich bekatlarda avtobuslarning turib qolish vaqti o'rtacha 8–12 daqiqani tashkil etib, bu vaqt haydovchining hujjatlarni rasmiylashtirishi, yo'lovchilarni tushirish va chiqarish, salonni tartibga keltirish, dam olish hamda ovqatlanish kabi jarayonlarga sarflanadi. Ushbu vaqtning o'zgarishi butun yo'nalish bo'ylab harakat jadvaliga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, oxirgi bekatlarda turib qolish vaqtining notekisligi teskari yo'nalishdagi harakat muntazamligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

Transport oqimining zichligi va tirbandlik darajasi tashqi omillar ichida eng muhimlaridan biri sifatida qayd etildi. Kuzatuvlar natijasiga ko'ra, Qo'qon shahrida ertalabki soat 07:30 dan 09:00 gacha va kechki soat 17:00 dan 19:00 gacha bo'lgan pik soatlarda transport oqimining zichligi 2–2,5 barobarga oshadi. Ushbu davrlarda avtobuslarning harakat tezligi sezilarli darajada pasayib, jadvaldan o'rtacha 15–20 daqiqalik kechikishlar kuzatiladi. Pik soatlardan tashqari vaqtlarda esa kechikishlar 5–7 daqiqani tashkil etadi.

Transport oqimi zichligining notekis taqsimlanishi natijasida avtobuslarning bir-birini quvib yetib olishi va to'planib qolish holatlari ham kuzatildi. Bu holat, ayniqsa, tirbandlik yuqori bo'lgan yo'nalishlarda, oldinda harakatlanayotgan avtobusning kechikishi natijasida orqadagi avtobusning uni quvib yetib olishi va keyingi bekatlarda ikkala avtobusning bir vaqtda yetib kelishi bilan izohlanadi. Bu esa yo'lovchilar oqimining notekis taqsimlanishiga olib keladi.

Ob-havo sharoitining jamoat transporti harakati muntazamligiga ta'siri ham tadqiqot davomida o'rganildi. Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, qor va yomg'ir yog'gan kunlarda avtobuslarning harakat tezligi o'rtacha 20–30 foizga pasayadi. Buning asosiy sababi yo'l qoplamasining sirpanchiq holatga kelishi va haydovchilarning xavfsizlik nuqtai nazaridan ehtiyotkorlik bilan harakatlanishidir. Tumanli kunlarda esa ko'rish masofasining qisqarishi harakat tezligiga ta'sir ko'rsatadi. Yoz oylarida kuzatilgan yuqori harorat transport vositalarining texnik holatiga qo'shimcha yuklama berishi mumkinligi ham kuzatildi.

Omllarning harakat muntazamligiga ta'sir darajasini miqdoriy baholash maqsadida o'tkazilgan korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra, eng yuqori korrelyatsiya koeffitsiyenti transport oqimining zichligi ($r = 0,78$) va haydovchilar malakasi ($r = 0,72$) bo'yicha aniqlangan. Shuningdek, transport vositalarining texnik holati ($r = 0,68$), yo'l infratuzilmasi sifati ($r = 0,65$) va ob-havo sharoiti ($r = 0,52$) ham muhim omillar sifatida qayd etildi.

Regression tahlil natijalari asosida ishlab chiqilgan model jamoat transporti harakati muntazamligini prognozlash va uni yaxshilashga qaratilgan boshqaruv choralarning samaradorligini baholashda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot davomida yo'lovchilarning jamoat transporti xizmatlaridan qoniqish darajasi ham o'rganildi. So'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning 68 foizi avtobuslarning jadval asosida harakatlanish darajasini qoniqarsiz deb baholagan. Asosiy e'tirozlar uzoq kutish vaqti (45 foiz), avtobuslarning to'xtamasdan o'tib ketishi (23 foiz) va belgilangan vaqtda yetib kelmasligi (32 foiz) bilan bog'liq ekanligi aniqlangan.

Shuningdek, respondentlarning 72 foizi jamoat transporti harakati muntazamligining yaxshilanishi ushbu transport turidan foydalanish darajasining oshishiga xizmat qilishini ta'kidlagan (2-jadval).

2-jadval. Yo'lovchilarning jamoat transporti xizmatlaridan qoniqish darajasi

Ko'rsatkichlar	Foiz (%)
Jadval asosida harakatlanish darajasini qoniqarsiz deb baholaganlar	68
<i>Shu jumladan asosiy shikoyatlar:</i>	
- Uzoq kutish vaqti	45
- Avtobuslarning belgilangan vaqtda kelmasligi	32
- Avtobuslarning to'xtovsiz o'tib ketishi	23
Jami	100
Harakat muntazamligi yaxshilansa, transportdan foydalanish chastotasini oshirishga tayyor bo'lganlar	72
Transport xizmatlaridan qoniqish darajasi (o'rtacha)	32



Transport korxonalari rahbarlari va dispetcherlari bilan o'tkazilgan suhbatlar natijasida harakat muntazamligini ta'minlash jarayoniga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlandi. Jumladan, transport vositalarining uzoq muddat foydalanilganligi, malakali haydovchilar tarkibini yanada kengaytirish zarurati, yoqilg'i-moylash materiallari narxlarining o'zgaruvchanligi, shuningdek, yo'l infratuzilmasini yanada takomillashtirish ehtiyoji qayd etildi.

Shu bilan birga, dispetcherlik xizmatining moddiy-texnik bazasini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish va transport vositalarining harakatini real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytirish harakat muntazamligini samarali boshqarishda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlandi. Mazkur yo'nalishlarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar jamoat transporti tizimi samaradorligini yanada oshirish uchun qulay sharoit yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari jamoat yo'lovchi transporti harakati muntazamligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning murakkab va ko'p qirrali ekanligini tasdiqladi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, jamoat transporti harakati muntazamligi bir vaqtning o'zida ichki va tashqi omillarning majmuaviy ta'siri ostida shakllanadigan murakkab jarayon bo'lib, ushbu omillarning har biri transport tizimining umumiy samaradorligiga o'ziga xos tarzda ta'sir ko'rsatadi.

Ichki omillar guruhiga kiruvchi transport vositalarining texnik holati, haydovchilar malakasi hamda boshlang'ich va oxirgi bekatlarda avtobuslarning turish vaqti harakat muntazamligining muhim belgilovchi omillari sifatida namoyon bo'ldi. Transport vositalarining uzoq muddat foydalanilganligi va ularga texnik xizmat ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish zarurligi aniqlangan muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, haydovchilarning malakasi va kasbiy tajribasi harakat muntazamligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, tajribali haydovchilar murakkab transport sharoitlarida ham jadvalga yaqin harakatlanish imkoniyatiga ega ekanligi kuzatildi.

Tashqi omillar guruhiga kiruvchi yo'l infratuzilmasi sharoitlari, transport oqimining zichligi, tirbandlik darajasi, svetofor boshqaruvi tizimlari hamda ob-havo sharoiti ham jamoat transporti harakati muntazamligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Ayniqsa, transport oqimining zichligi eng yuqori korrelyatsiya koeffitsiyentiga ega omil sifatida qayd etildi. Pik soatlarda transport oqimining 2–2,5 barobarga oshishi avtobuslar harakat jadvalida o'rtacha 15–20 daqiqagacha og'ishlar kuzatilishiga olib kelishi aniqlangan.

Yo'lovchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari respondentlarning 68 foizi jamoat transporti qatnovlari muntazamligini yanada takomillashtirish zarurligini bildirganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, respondentlarning 72 foizi jamoat transporti harakati muntazamligining yaxshilanishi ushbu transport turidan foydalanish darajasining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, harakatlanuvchi tarkibni bosqichma-bosqich yangilash va texnik xizmat ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq. Xususan, uzoq muddat foydalanilgan transport vositalarini zamonaviy avtobuslar bilan almashtirish, texnik xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantirish va profilaktik xizmat ko'rsatish ishlarini muntazam tashkil etish zarur.

Ikkinchidan, haydovchilarning kasbiy malakasini oshirish va mehnat sharoitlarini yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun haydovchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularning mehnatini rag'batlantirish mexanizmlarini rivojlantirish hamda kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish tavsiya etiladi.

Uchinchidan, yo'l infratuzilmasini rivojlantirish va transport oqimlarini boshqarish tizimini modernizatsiya qilish zarur. Jumladan, jamoat transporti uchun maxsus ajratilgan yo'laklarni tashkil etish va kengaytirish, bekat infratuzilmasini takomillashtirish hamda svetofor boshqaruvi tizimlarini transport harakati samaradorligini oshirishga yo'naltirish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, dispetcherlik nazorati va boshqaruv tizimini zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish lozim. Xususan, transport vositalarining harakatini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beruvchi navigatsion tizimlarni joriy etish, markazlashgan dispetcherlik boshqaruv tizimini rivojlantirish hamda harakatni muvofiqlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish tavsiya etiladi.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi jamoat transporti harakati muntazamligini oshirish, transport xizmatlari sifatini yaxshilash hamda transport korxonalarining faoliyat samaradorligini yanada rivojlantirish uchun muhim asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ceder, A. (2016). Public Transit Planning and Operation: Modeling, Practice and Behavior. Boca Raton: CRC Press. 720 p.



2. Vuchic, V. R. (2007). *Urban Transit Systems and Technology*. Hoboken, NJ: Wiley. 624 p.
3. Transportation Research Board. (2013). *Transit Capacity and Quality of Service Manual*. Washington, DC: National Academies Press. 758 p.
4. Transportation Research Board. (2020). *TCRP Report 215: Minutes Matter: A Bus Transit Service Reliability Guidebook*. Washington, DC: National Academies Press. 210 p.
5. Gibson, J., Bunker, J., & Ferreira, L. (2002). An analytical model for passenger bus service reliability. *Transportation Research Record*, No. 1791, pp. 81–88.
6. Turnquist, M. A. (1978). A model for investigating the effects of service reliability on transit patronage. *Transportation Research Part A*, Vol. 12, No. 5, pp. 317–323.
7. Daganzo, C. F. (2009). A headway-based approach to eliminate bus bunching: Systematic analysis and comparisons. *Transportation Research Part B*, Vol. 43, No. 10, pp. 913–921.
8. Transportation Research Board. (2011). Impacts of holding control strategies on transit performance. *Transportation Research Record*, No. 2216, pp. 19–27.
9. Transportation Research Board. (2013). *TCRP Report 165: Transit Capacity and Quality of Service Manual (3rd ed.)*. Washington, DC: National Academies Press. 780 p.
10. Transportation Research Board. (2018). *Bus Service Reliability Guidebook*. Washington, DC: National Academies Press. 156 p.
11. Kittelson & Associates, Inc. (2003). *Transit Capacity and Quality of Service Manual (2nd ed.)*. Washington, DC: Transportation Research Board. 658 p.
12. Furth, P. G., & Muller, T. H. J. (2006). Service reliability and hidden waiting time. *Transportation Research Record*, No. 1955, pp. 35–41.
13. Strathman, J. G., & Hopper, J. R. (1993). Empirical analysis of bus transit on-time performance. *Transportation Research Part A*, Vol. 27, No. 2, pp. 93–100.
14. Abkowitz, M., & Engelstein, I. (1983). Factors affecting running time on transit routes. *Transportation Research Part A*, Vol. 17, No. 2, pp. 107–113.
15. Levinson, H. S. (1991). Bus transit service reliability. *Transportation Research Record*, No. 1308, pp. 21–27.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100